

## “OSHIQNOMA” DOSTONLARIDAGI MUHABBAT KONSEPTLI AYRIM HIKMATLI SO‘ZLAR TAHLILI

**Muxammedova Sumbul Ikrombek qizi**  
NDPI tayanch doktoranti

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada hikmatli so‘zlar, maqol va matallar haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar umumlashtirilgan. “Oshiqnoma” turkum dostonlarida qo‘llanilgan ayrim hikmatli so‘zlar tahlil qilingan.

*Kalit so‘zlar:* parema, maqol, matal, ibora, hikmatli so‘z, doston.

*Annotation.* Abstract. This article summarizes scientific and theoretical views on wise words, proverbs and sayings. Some wise words used in the epics of the "Ashiqnoma" series are analyzed.

*Key words:* parame, proverb, matal, idiom, wise word, epic.

*Аннотация.* В данной статье обобщены научно-теоретические взгляды на мудрые слова, пословицы и поговорки. Анализируются некоторые мудрые слова, использованные в былинах серии «Ашиқнома».

*Ключевые слова:* парема, пословица, поговорка, фраза, мудрое изречение, сага.

### **Kirish.**

Hikmatli so‘zlar maqol va matallar kabi xalqimiz donishmandligining namunalari bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan boy ma‘naviy merosimiz hisoblanadi. Hikmatli so‘zlarning maqol va matallardan farqli tomoni shundaki, ular ma‘lum bir shaxs yozuvchi, shoir, olim, faylasuf, davlat arbobi yoki publitsist tomonidan yaratilib, muallifi aniq bo‘ladi. Yozuvchi va shoirlar o‘z asarlarida fikrni qisqa, lo‘nda va ta‘sirchan yetkazishda maqsadida ko‘proq hikmatli so‘zlar, maqol, matal va iboralardan foydalanishadi. Hikmat – bu arabcha so‘z bo‘lib, asli “donishmand bo‘ldi” ma‘nosini anglatib, “donishmandlik”, “zakovat” ma‘nosini anglatadi [4, 584]. Muayyan tilda mavjud bo‘lgan maqol, matal, ibora va hikmatli so‘zlar umumiy tarzda – paremalar deb ataladi [1,7]. Paremalardan foydalanish qadim-qadim zamonlardan beri mavjud bo‘lib, og‘zaki tarzda og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan. Keyingi davrlarda hind adabiyotining nodir durdonalarida “Kalila va Dimna”, Gulxaniyning “Zarbulmasal”, M.Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asarlarida hikmatli so‘zlar, maqol va matallarning noyob namunalarini uchramiz [6,260]. O‘zbek yozuvchilaridan Hamza, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor A.Qodiriy, G‘.G‘ulom, M.Shayxzoda kabi so‘z san‘atkorlari o‘z asarlarida hikmatli so‘zlarning zamonaviy namunalarini yaratib, o‘zbek adabiy tilining rivojiga salmoqli hissa qo‘shganlar.

Ma‘lumki, o‘zbek folklorida “Oshiq” turkum dostonlari faqat Xorazm vohasi hududida tarqalganligi bilan xarakterli. Ayni paytda, bu turkumga kiruvchi asosiy

asarlari namunasi turkman, ozarbayjon va turk folklorida yetakchi dostonlardan hisoblanadi. Ushbu doston personajlari ayni xalqlar orasida eng sevimli xalq qahramonlari sifatida ardoqanadi. Shu bilan birgalikda, ushbu xalqlar bilan bevosita yaqin madaniy aloqada bo'lgan arman, gruzin, kurd va boshqa xalqlar orasida ham ushbu dostonlar mashhur. Bir so'z bilan aytganda, "oshiq" turkum dostonlari etnik tarkibida o'g'uz qabila birlashmalari dominantlik qiluvchi millatlar va ular bilan yaqin adabiy-madaniy aloqada bulgan xalqlar orasida keng yoyilgani bu turkumning og'uz epik an'analari asosida shakllanib, rivoj topganligidan dalolat beradi [5, 6].

### **Muhokama va natijalar**

Hikmatli so'zlar "Oshiq" turkum dostonlarida ham keng qo'llanilgan bo'lib, ularni o'rganish, tadqiq etish, ota-bobolarimiz turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlarini, o'tmishi haqida ko'plab ma'lumotlar beradi. "Oshiqnoma" turkum dostonlariga kiruvchi dostonlarning barchasida ishq muhabbat mavzusi yetakchilik qiladi. Ishq bu – [sevgi, muhabbat; oshiqlik, xushtorlik] 1. Qarama-qarshi jinsdagi odamlarning bir-biriga nisbatan intilishi, chin qalbdan iliq munosabat tuyg'usi; sevgi, muhabbat. 2. Zo'r ichki intilish; ishtiyoq [3, 328]. Umuman, dostonlarining ko'pchiligida ishq-muhabbat, sevgi va nafrat yonma-yon yuradi. Alloh tomonidan ko'ngliga ishq atalmish muqaddas tuyg'u solingan inson borki, yoriga yetishmoqlikni orzu qiladi. Yor ahdiga vafoli bo'lsa, ikki qalb barcha to'siqlarni yengib o'tadi, lekin yorning ko'ngli boshqada bo'lsa-chi? "Sayod va Hamro" dostonida keltirilgan ko'plab she'riy parchalarda yorning bevafo ekanligiga ishora qilinadi.

**"Bevafoga ko'ngil bersang, xor bo'lasan"** maqoli "*Chin gulni saqlasang ming yilda so'lmas, Bevafoni sevsang qadringni bilmas*", "*Chin gulni saqlasang ming yilda so'lmas, Bevafoning hargiz iqrori bo'lmas*", "*Bevafoga ko'ngil bersang xor aylar*", "*Balki deram: kishi yori yor bo'lmas, Ikki tilli bevafodin do'n ko'nglim*" kabi turli ko'rinishlarda ifodalangan bo'lib, bevafo insonga ko'ngil bersang, u hech qachon senga vafo qilmaydi, qadringga hech qachon yetmaydi, unday yordan voz kech degan ma'no anglashiladi. Va'daga vafo qilish muqaddas kitobimiz "Qur'oni Karim" oyatlarida, sahih hadislarimizda ham keltirilgan bo'lib, kimki ahdiga vafo qilmasa, xiyonat qilsa munofiq kishiga aylanishi haqida rivoyatlar mavjud. Misvar ibn Mahrama raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: "*Men Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning o'z kuyovlari haqida zikr qilib, "U menga va'da berib, va'dasiga vafo qildi" deganlarini eshitdim*". Yoki, boshqa bir rivoyatda Abu Xurayra raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: "*Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: "Munofiqlarning uch belgisi mavjud bo'lib, agar so'zlasa, yolg'on so'zlar, agar (omonatni) ishonib topshirsalar, xiyonat qilur va agar va'da bersa, vafo qilmas*", –

*dedilar*”. Aytilgan soʻzni ustidan chiqish, vaʼdaga vafo qilishga dinimizda ham buyuriladi. Biroq yor haqida soʻz ketganda ishqiy dostonlarning koʻpchiligida oshiq yorni bevafoqlikda ayblaydi. Ana shu oʻrinlarda “bevafo yor”ga qarata koʻplab hikmatli soʻzlar qoʻllaniladi. Masalan,

**Chin gulni saqlasang, ming yilda soʻlmas, Bevafo sevsang, qadringni bilmas.** (5-kitob, TZ. 42-b.) – *Chin gulni saqlasang ming yilda soʻlmas, Bevafo sevsang qadringni bilmas.* \ (8-kitob, SH.(y.v.) 133-b.) – *Chin gulni saqlasang ming yilda soʻlmas, Bevafo hargiz iqrori boʻlmas.*

“Toxir va Zuhra” hamda “Sayod va Hamro” dostonlarida “Bevafo sevsang, qadringni bilmas” hikmatli soʻzi “*Chin gulni saqlasang ming yilda soʻlmas, Bevafo sevsang qadringni bilmas*” yoki “*Chin gulni saqlasang ming yilda soʻlmas, Bevafo hargiz iqrori boʻlmas*” shaklida qoʻllanilgan boʻlib, yorning bevafo ekanligiga urgʻu berilmoqda. Bu yerda gul va yor timsoli oʻzaro qarshilantirilmoqda. Haqiqiy gulni mehr berib pavarish qilsang, u hech qachon soʻlmaydi, oʻz koʻrkini yoʻqotmaydi, biroq bevafo yorga koʻngil bersang, u sening qadringga hech qachon yetmaydi, xor boʻlasan degan maʼno ifodalanmoqda. Shu bilan birgalikda, bevafo yor bergan vaʼdasiga iqori boʻlmasligi, soʻzidan qaytishi ham taʼkidlanmoqda.

**Bevafo koʻngil bersang, xor aylar.** (1-kitob, SH. 73-b.) – *Bevafo koʻngil bersang xor aylar, Koʻngli boshqa bevafo din doʻn koʻnglim.*

Koʻngil bir qasrki, uning ichiga kimning ismi yozilishi faqat Yaratgangagina bogʻliq. Agar bevafo yorga ishqing tushadigan boʻlsa, qancha ranj-u alamlar tortmoq lozim. “Bevafo koʻngil bersang, xor aylar” hikmatli soʻzi “Sayod va Hamro” dostonida “*Bevafo koʻngil bersang xor aylar, Koʻngli boshqa bevafo din doʻn koʻnglim*” shaklida qoʻllanilgan. Bevafo – 1) ahd-paymonni buzuvchi; sadoqatsiz, vafosiz, bevafo yor. 2) hech kimga abadiy berilmagan, vafo qilmaydigan, vafosiz; oʻtkinchi, bevafo [3, 962]. Ushbu hikmatli soʻzda bevafo soʻzi birinchi “sadoqatsiz yor” maʼnosida qoʻllanilgan boʻlib, bevafo yordan voz kechish kerakli, unday inson hech qachon vafo koʻrsatmasligi, ahdiga vafo qilmasligi, oxir oqibatda xor qilishi mumkin degan maʼno ifodalangan.

**Kishi yori yor boʻlmas.** (1-kitob, SH. 73-b.) – *Balki deram: kishi yori yor boʻlmas, Ikki tilli bevafo din doʻn koʻnglim.*

Inson yaratilibdiki, Alloh taolo unga oʻz juftlari bilan birga jon ato etgan. Odam Ato yaratilgan davrdan boshlab, ularga juft qilib qovurgʻasidan Momo havoni yaratdi. Ulardan tugʻilgan zurriyotlar orqali insoniyat koʻpayishdi, butun dunyoga tarqaldi. Har bir tirik jon borki, oʻz juftini qidiradi, nasl qoldirishga harakat qiladi. Yor tanlashda adashmaslik lozim. Koʻngli oʻzgada boʻlgan yordan uzoqlashish

“Kishi yori yor bo‘lmas” hikmatli so‘zi orqali ifodalaniladi. “Sayod va Hamro” dostonida ushbu hikmatli so‘z *“Balki deram: kishi yori yor bo‘lmas, Ikki tilli bevafo din do‘n ko‘nglim”* shaklida keltirilgan bo‘lib, birovning yoridan hech qachon yor bo‘lmasligi, tili ikki xil so‘zlovchi yordan voz kechish lozim degan ma‘no ifodalangan.

Ma‘lumki, ishq ikki xil ma‘noda qo‘llaniladi: ishq majoziy va avom ishq. Ishq majoziy – insonning Allohga bo‘lgan muhabbati bo‘lsa, avom ishq – insonning insonga bo‘lgan muhabbati hisoblanadi. Ishq o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Alloh tomonidan inson qalbiga ishq o‘ti tuyg‘usi tushurilsagina, u inson ko‘nglida alanga ola boshlaydi. Ishq, muhabbat tuyg‘usi “Oshiqnoma” turkum dostonlarida qo‘llanilgan hikmatli so‘zlar zamirida avom ishq, ya‘ni insonning boshqa qarama-qarshi jinsdagi odamlarning bir-biriga nisbatan intilishi, chin qalbdan iliq munosabat tuyg‘usi bo‘lgan sevgi, muhabbati ko‘proq ifodalangan. “Muhabbat ul o‘zi eski narsa. Lekin har bir yurak uni yangilaydi” – degan edi tatar shoiri Xodi Toqtash. Xususan,

**Ishq yo‘linda jon barmagan har oshiq qabohatdir.** (1-kitob, RCh. 130-b.) – *Jon barmagan har oshiq yo‘linda qabohatdur.*

Ishq savdosi boshiga tushgan har bir oshiq yoriga yetishmoqlikni maqsad qiladi. Bu yo‘lda qanday to‘siqlar bo‘lsa, yengib o‘tishga harakat qiladi. Yor uchun jonini ham bermoqlikka tayyor turadi. **“Ishq yo‘linda jon barmagan har oshiq qabohatdir”** hikmatli so‘zi “Ro‘yi Chin” dostonida *“Jon barmagan har oshiq yo‘linda qabohatdur”* shaklida qo‘llanilgan. Qabohat – [qabih ish, qabihlik, razillik; beadablik] 1. Qabih ish, yaramas xatti-harakat; qabihlik. 2. Qabohatli, razil, qabih [3, 7] degan ma‘nolarda qo‘llanilib, ushbu hikmatli so‘zda ikkinchi qabih, razil inson degan ma‘noda qo‘llanilgan. Ya‘ni inson ishq uchun jon berishga tayyor bo‘lmasa, u oshiq emasdur deyilmoqda.

**Kinga ishq o‘tidin axgar yetsa, joni yonar.** (1-kitob, RCh. 152-b.) – *Ishq o‘tidin kima yetsa axgar, Yonar joni ko‘ngul zabon anglamas.*

“Ro‘yi Chin” dostonidan olingan ushbu parchada ham ishq savdosi kimning boshiga tushsa, undan qochib qutula olmasliki ifodalangan. “Kinga ishq o‘tidin axgar yetsa, joni yonar” hikmatli so‘zi *“Ishq o‘tidin kima yetsa axgar, Yonar joni ko‘ngul zabon anglamas”* shaklida qo‘llanilgan. Axgar bu – [o‘t, olov, cho‘g‘] qizarib turgan olov, cho‘g‘ [3,187] degan ma‘noda qo‘llanilib, agar kimning qalbiga ishqning o‘tidan zarracha cho‘g‘ yushsahamki, u butun vujudini alanga oldiradi, kuyub kul qiladi degan ma‘no ifodalangan. Ishq o‘ti haqidagi ijod namunalarini barcha shoirlar ijodida uchramiz. Xususan, Mashrab “O‘rtar” g‘azalida ham ushbu “Kinga ishq o‘tidin axgar yetsa, joni yonar” hikmatli so‘zi “Kishiga ishq o‘tidin

zarraye yetsa, bo‘lur giryon, Bo‘lub besabr-u betoqat, yurak-bag‘ri chunon o‘rtar” shaklida ifodalangan.

**Dilbar yo‘li ofatdur ham ranj-u mashaqqatdur** (1-kitob, RCh. 132-b.) – *Dilbar yo‘li ofatdur, ham ranju mashaqqatdur.*

“Ro‘yi Chin” dostonidan olingan ushqu “*Dilbar yo‘li ofatdur, ham ranju mashaqqatdur*” hikmatli so‘zida ham, yorga yetishish yo‘li mashaqqatli bo‘lishi, bu yo‘lda har xil to‘siqlarni yengib o‘tish lozimligi aytilmoqda. Ofat bu – [ranj, alam, jirkanish; baxtsizlik, balo; xavf] 1. Boshga kulfat soluvchi yoki halokatga olib keluvchi baxtsizlik, balo. 2. Yo‘q qiluvchi, kushanda; iloj, davo [3,442]. Ushbu hikmatli so‘zda ofat so‘zi birinchi boshga kulfat soluvchi ma’nosida qo‘llanilgan bo‘lib, dilbarga erishish yo‘li har doim halokatli, xatarli, mashaqqatlarga to‘la bo‘ladi degan ma’no ifodalangan.

**Xulosa.** Hikmatli so‘zlar maqol, matal, iboralar kabi turg‘unlashgan, og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan adabiy merosimiz namunalari hisoblamadi. Ularni o‘rganish, tadqiq etish ota-bobolarimiz tarixi, turmush tarzi haqida yangidan yangi ma’lumotlar beradi. Ularni asrab-avaylab, kelgusi avlodga yetkazib berish har birimizning burchimizdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Berdiyev H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. T.1984. – B.203.
2. Imom Buxoriy Al-jome as-sahih / 4-jildlik –Toshkent. 2007. – B.403.
3. Madvaliyev A., Xudoyberganova D. – O‘zbek tilining izohli lug‘ati – VI tomlik / Toshkent.: “G‘afur G‘ulom”, 2022. – B.962.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati Toshkent.: “Universitet”, 2003. – B.584.
5. Sobirova N. “Xorazm “Oshiq” turkum dostonlari”]
6. Ўаниева С. Калила ва Димна / тарж.. - Т.: Янги аср авлоди, 2010. – Б.260. М.Кoshg‘ariy “Devonu lugotit turk” Toshkent. 1960.
7. Gulxaniy “Zarbulmasal” “O‘qituvchi”. Toshkent. 1972. – B.56.